

## KORXONALARNING INVESTITSIYA RESURSLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNI BOSHQARISH

Xoliqberdiyev Asrorbek Azamat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi Fin tech magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15149919>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada korxonalarning investitsiya resurslarini shakllantirish manbalari, ularning tarkibiy tuzilmasi hamda ularni samarali boshqarishning nazariy va amaliy asoslari chuqur o'r ganiladi. Xususan, investitsion faoliyatda ichki (sof foyda, amortizatsiya ajratmalari, aylanma mablag'lar) va tashqi (bank kreditlari, investitsiyalar, obligatsiyalar) moliyaviy manbalarning nisbiy ustunliklari, ularni jalg qilishda duch kelinadigan asosiy muammolar hamda ularni hal etish yo'llari batafsil tahlil qilinadi. Maqolada investitsiya resurslarini boshqarishda zamonaviy strategik yondashuvlar, investitsiya portfelini diversifikasiya qilish, risklarni minimallashtirish usullari va doimiy monitoring tizimining ahamiyati keng yoritilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston sharoitida faoliyat yuritayotgan real sektor korxonalari misolida investitsion siyosatni takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy barqarorlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu maqola korxonalar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularning investitsion salohiyatini rivojlantirishda foydali metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** investitsiya resurslari, investitsion faoliyat, moliyaviy boshqaruvi, ichki va tashqi manbalar, kapital qo'yilmalar, risklarni boshqarish, investitsiya portfeli, korxona strategiyasi, monitoring tizimi, investitsiya siyosati.

## FORMATION AND MANAGEMENT OF INVESTMENT RESOURCES OF ENTERPRISES

*Abstract.* This article deeply studies the sources of investment resources, the structure of resources and the theoretical and practical foundations of their effective management. The relative activity of internal (profit, depreciation, working capital) and organizational (bank loans, investment loans, bonds) sources of income in personal, investment activities, the analysis of useful problems encountered in their attraction and their solutions. The article extensively covers modern strategic developments in the management of investment resources, diversification of the investment portfolio, methods of minimizing risks and constant monitoring. In addition, the development of recommendations on ensuring the investment strategy, effective use and management of resources on the example of the real estate sector in which Uzbekistan is

*practically operating. This article has practical support and can serve as a useful methodological tool in developing the investment base.*

**Keywords:** *investment resources, investment activity, management, internal and organizational resources, capital investments, risk management, investment portfolio, enterprise strategy, monitoring system, investment policy.*

## **ФОРМИРОВАНИЕ И УПРАВЛЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ РЕСУРСАМИ ПРЕДПРИЯТИЙ**

**Аннотация.** В статье подробно рассматриваются источники формирования инвестиционных ресурсов предприятий, их структурная структура, теоретические и практические основы эффективного управления ими. В частности, подробно анализируются сравнительные преимущества внутренних (чистая прибыль, амортизационные отчисления, оборотные средства) и внешних (банковские кредиты, инвестиции, облигации) источников финансирования инвестиционной деятельности, основные проблемы, возникающие при их привлечении, и пути их решения. В статье подробно рассматриваются современные стратегические подходы к управлению инвестиционными ресурсами, диверсификация инвестиционного портфеля, методы минимизации рисков, а также важность системы постоянного мониторинга. Кроме того, разработаны практические рекомендации на примере предприятий реального сектора экономики Узбекистана по совершенствованию инвестиционной политики, эффективному использованию ресурсов и повышению финансовой устойчивости. Статья имеет практическое значение для предприятий и может служить полезной методической основой для развития их инвестиционного потенциала.

**Ключевые слова:** *инвестиционные ресурсы, инвестиционная деятельность, финансовый менеджмент, внутренние и внешние источники, капитальные вложения, управление рисками, инвестиционный портфель, стратегия предприятия, система мониторинга, инвестиционная политика.*

### **Kirish**

Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini saqlab qolish, innovatsion rivojlanish va ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun doimiy tarzda investitsiyalarga ehtiyoj sezadilar. Investitsiya resurslari korxonaning uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishishda asosiy omil bo'lib, ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish,

yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini oshirish va yangi bozor segmentlarini egallahda muhim rol o‘ynaydi.

Investitsiya resurslarini shakllantirish va ularni samarali boshqarish masalasi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida dolzarb hisoblanadi. Chunki bu jarayon nafaqat korxona darajasida, balki makroiqtisodiy darajada ham iqtisodiy o‘sishning kafolati hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, investitsiya faoliyatining samaradorligi, moliyaviy resurslarning manbalari va ulardan foydalanish strategiyasi har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt uchun alohida ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada korxonalarining investitsiya resurslarini shakllantirishning nazariy asoslari, amaliy tajribasi va ularni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi.

Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari asosida amaliy takliflar ilgari suriladi.

**Metodologiya:** Ushbu tadqiqotda korxonalarining investitsiya resurslarini shakllantirish va boshqarish jarayonlarini chuqur o‘rganish maqsadida kompleks yondashuv asosida ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot quyidagi asosiy metodologik yondashuvlarga tayangan:

- ✓ **Tahliliy metod** – investitsiya resurslarining tuzilmasi, ularning shakllanish manbalari va ulardan foydalanish mexanizmlari tahlil qilindi. Statistika ma’lumotlari asosida O‘zbekiston korxonalarining investitsion faoliyati baholandi.
- ✓ **Taqqoslash metodi** – turli moliyaviy manbalar (ichki va tashqi) samaradorligi solishtirildi va ularning afzallik hamda kamchiliklari ko‘rsatib o‘tildi.
- ✓ **Sistemali yondashuv** – korxona faoliyatida investitsiya resurslarini boshqarish butun tizim sifatida qaralib, ularning iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy jihatlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi.
- ✓ **Empirik metodlar** – real sektor korxonalarining amaliy tajribasi, ularning moliyaviy hisobotlari, mavjud investitsiya loyihalari va ularning natijalari asosida amaliy xulosalar chiqarildi.
- ✓ **SWOT-tahlil** – korxonalarining investitsiyaviy salohiyati, mavjud imkoniyatlar va xavf-xatarlar baholandi.

Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Markaziy bank, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hamda ayrim sanoat tarmoqlariga oid ochiq

manbalardan olingan ma'lumotlardan foydalanildi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish orqali ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi:** Korxonalarning investitsiya resurslarini shakllantirish va ularni boshqarish masalalari xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, ularning aksariyatida moliyaviy strategiya, kapital struktura, investitsion risklar va portfel boshqaruvi nazariyalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Klassik iqtisodiy maktab vakillaridan biri bo'lgan J. M. Keynes investitsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rib, ularning talab va taklif asosida shakllanishini asoslab bergen. Uning nazariyasida investitsiya qarorlarini qabul qilishda kutishlar (expectations) muhim rol o'yнaydi.

M. Miller va F. Modigliani tomonidan ishlab chiqilgan kapital strukturasi nazariyasida esa, korxonaning qiymati uning moliyalashtirish manbalaridan emas, balki investitsiyaviy qarorlar sifatidan kelib chiqib shakllanishi ta'kidlangan. Bu nazariya korxonalar tomonidan qarz va o'z mablag'lari nisbatini optimal tanlash muhimligini ko'rsatadi.

Amaliy yondashuvlarda esa P. Drucker, R. Brigham, E. Helfert kabi iqtisodchilar tomonidan investitsiya boshqaruvi, investitsion portfeli diversifikatsiya qilish, risklarni kamaytirish usullari chuqur o'rganilgan. Ayniqsa, R. Brighamning moliyaviy menejmentga oid asarlarida investitsiyalarning baholash usullari – sof joriy qiymat (NPV), ichki rentabellik normasi (IRR), to'lov muddati va boshqa indikatorlarga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchilar orasida H. Xolbo'tayev, B. Khodiev, I. Ergashev, Sh. Ortiqov va boshqalar tomonidan korxona investitsion siyosatini shakllantirish, investitsiya muhitini takomillashtirish hamda mahalliy korxonalarda zamonaviy investitsiya boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlar ham tadqiqotda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

### Tahlil va natijalar

Investitsiya resurslari har qanday korxonaning hayotiy zarurati hisoblanadi. Ular mavjud bo'lmasa, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi mahsulotlar yaratish yoki zamonaviy texnologiyalarni joriy etish haqida gapirishning o'zi mantiqsiz.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pgina korxonalar investitsiyalarga ehtiyoj sezsa-da, ularni shakllantirishda va to'g'ri boshqarishda tizimli yondashuv yetishmaydi.

Bugungi kunda korxonalar, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari ichki moliyaviy manbalarga suyanishga majbur bo'lmoqda. Amortizatsiya ajratmalari, sof foyda yoki aylanmadan bo'shagan mablag'lar investitsiyalarning asosiy qismini tashkil etmoqda. Tashqi moliyaviy manbalar, xususan, bank kreditlari esa yuqori foiz stavkalari va garov talablarining murakkabligi sababli barcha uchun ham ochiq emas. Aksincha, rivojlangan mamlakatlarda bu vositalar korxonalarni qo'llab-quvvatlovchi asosiy moliyaviy mexanizmlar hisoblanadi.

#### 1-jadval.

#### Investitsiya resurslarining manbalari bo'yicha taqsimoti

Manba turi	Ichki resurslar (%)	Tashqi resurslar (%)
Sof foyda	35%	0%
Amortizatsiya ajratmalari	30%	0%
Bank kreditlari	0%	20%
Xorijiy investitsiyalar	0%	10%
Davlat subsidiyalari	0%	5%

Manba: Uzdaily.uz, 2025

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsion qarorlar ko'p hollarda intuitiv asosda, ya'ni ilmiy yondashuvsiz qabul qilinmoqda. Buning natijasida ko'plab loyihalar samara bermay qolmoqda yoki rejalashtirilgan natijalarga erishilmayapti. Investitsiya loyihalarini baholashda NPV, IRR, to'lov muddati kabi iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish hollari juda kam. Bu esa risklarni oldindan ko'ra bilmaslik, resurslarning samarasiz taqsimlanishi va yo'qotishlar bilan yakunlanmoqda.

#### 2-jadval.

#### Investitsiya faoliyatining asosiy yo'nalishlari (sohalar kesimida)

Sohalar	Investitsiya hajmi (mlrd so'm)	Ulushi (%)
Ishlab chiqarish	12 450	42%
Qishloq xo'jaligi	6 750	23%
Transport va logistika	8 400	18%
Axborot texnologiyalari	3 900	7%
Xizmat ko'rsatish	5 100	10%

**Manbaa:Uzdaily.uz, 2025**

Yana bir muhim jihat – korxonalarda investitsiya portfeli konsepsiysi deyarli shakllanmagan. Aksariyat holatlarda bir yoki ikkita loyiha ustuvor deb topilib, qolgan imkoniyatlar e'tibordan chetda qolmoqda. Diversifikatsiyaning past darajada ekanligi risklarni oshiradi, ayniqsa, o'zgaruvchan bozor sharoitida. Holbuki, zamonaviy yondashuvlarda investitsion portfeli turli sohalar va muddatlar bo'yicha muvozanatlashtirish tavsiya etiladi.

**3-jadval.**

**O'zbekistonda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (2025 yil holatiga)**

Davlat	Korxona soni	Ulushi (%)
Xitoy	3 357	22.6%
Rossiya	2 937	19.8%
Turkiya	1 826	12.3%
Qozog'iston	1 041	7.0%
Janubiy Koreya	644	4.3%
AQSh	304	2.0%

**Manbaa: <https://stat.uz>**

Yuqoridagilar asosida aytish mumkinki, investitsiya resurslarini shakllantirish va boshqarishda quyidagi yo'nalishlar ustida jiddiy ishlash talab etiladi: moliyaviy savodxonlikni oshirish, investitsion tahlil vositalarini joriy etish, davlat tomonidan uzoq muddatli resurslarni yaratish, va, albatta, korxonalar ichida professional investitsion boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish.

Bugungi globallashuv davrida har qanday davlatning iqtisodiy taraqqiyoti, birinchi navbatda, uning investitsion salohiyati va bu sohadagi islohotlar samaradorligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston ham bu yo'nalishda faol harakat qilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda xorijiy investitsiyalar oqimi, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining keskin oshgani bu jarayonning amaliy tasdig'idir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025 yil 1 yanvar holatiga kelib, O'zbekistonda xorijiy kapital ishtirokidagi 14 871 ta korxona faoliyat yuritmoqda. Bu raqam nafaqat iqtisodiy faollik, balki mamlakat investitsion muhitining ochiqligi va ishonchliligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ayniqsa, Xitoy (3 357 ta korxona), Rossiya (2 937 ta), Turkiya (1 826 ta), Qozog‘iston (1 041 ta), Janubiy Koreya (644 ta) va AQSh (304 ta) kapitali ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘pligi — O‘zbekistonning keng ko‘lamli xalqaro iqtisodiy aloqalarga ega bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Bu jarayon oddiy raqamlar ortida yotgan katta iqtisodiy siljishlarni anglatadi. Xorijiy investorlar faqat barqaror siyosat, ochiq iqtisodiy muhit va ishonchli qonunchilik mavjud bo‘lgan davlatlargagina sarmoya kiritadi. Demak, O‘zbekiston hukumati tomonidan so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar – erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi, soliq imtiyozlari berilishi, investorlarga kafolatlar taqdim etilishi kabi chora-tadbirlar o‘z samarasini bermoqda.

Biroq investitsiyalarning iqtisodiyotga ta’siri faqat moliyaviy oqimlar bilan cheklanib qolmaydi. Ular orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, ishlab chiqarish hajmi ortadi, zamonaviy texnologiyalar joriy qilinadi, mahsulot sifati oshadi. Eng muhimi esa – bu o‘zgarishlar jamiyat hayotiga bevosita ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonlarning natijasi sifatida ichki bozorning to‘yinshi, eksport salohiyatining ortishi va, albatta, aholining daromadlarida o‘sish kuzatiladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, xorijiy investitsiyalarning ko‘payishi – bu oddiy iqtisodiy ko‘rsatkich emas, balki jamiyat rivojlanishining, islohotlarning va davlat siyosatining ijobjiy natijasidir. Albatta, investitsiyalarning samarali boshqaruvi, ularning maqsadli yo‘naltirilishi va natijadorligining doimiy monitoringi hali dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu boradagi sustkashliklar iqtisodiy o‘sish sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yakuniy xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, investitsiya bu – xarajat emas, balki kelajakni qurish vositasidir. Unga ongli, hisob-kitobli va strategik yondashgan korxonalar bugunning raqobatida yutadi, ertaning barqaror ishtirokchisiga aylanadi.

### Muhokama

Korxonalarning investitsiya resurslarini shakllantirish va ularni boshqarish masalasi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida muhim strategik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, korxonalar investitsiyaviy faoliyatni amalga oshirishda asosan ichki moliyaviy manbalarga tayanmoqda. Bu holat bir tomonidan moliyaviy mustaqillikni oshirsa-da, boshqa tomonidan, yirik va uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini cheklab qo‘yadi.

Tashqi moliyaviy resurslar, ayniqsa, xorijiy investitsiyalar va bank kreditlarining mavjudligi esa investitsion salohiyatni kengaytirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq bu manbalarni jalb qilishda korxonalar turli muammolarga duch kelmoqda.

Ulardan eng asosiysi — yetarli darajada kafolat mexanizmlarining mayjud emasligi, byurokratik to'siqlar, investitsiya loyihalarini baholashdagi bilim va tajriba yetishmovchiligidir.

Investitsiya resurslarini boshqarish sohasida ham muhim kamchiliklar mavjud.

Korxonalarda strategik investitsion rejalashtirish tizimi to'liq shakllanmagan, ko'plab hollarda investitsion qarorlar qisqa muddatli manfaatlarga asoslangan holda qabul qilinmoqda.

Bu esa resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga, ayrim holatlarda esa loyihalarning muvaffaqiyatsiz yakunlanishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, investitsiya risklarini baholash va boshqarish tizimining zaifligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Risklarni oldindan aniqlash, ularning ta'sirini kamaytirish va moslashuvchan yondashuvlarni ishlab chiqish korxonalar uchun barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda O'zbekistonda xorijiy sarmoyalarni jalb etish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash, qulay qonunchilik va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha bir qator ijobjiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Biroq, bu imkoniyatlardan to'liq foydalinish uchun korxonalar darajasida ham investitsiya madaniyati, moliyaviy savodxonlik va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish zarur.

Muhokama natijalariga ko'ra, investitsiya resurslarini shakllantirish va ularni samarali boshqarish masalasi kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunda davlat siyosati, moliyaviy institutlar faoliyati va korxonalar strategik qaror qabul qilish salohiyatining uyg'unligi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

### Xulosa

O'tkazilgan tahlillar va muhokamalar asosida aniqlanishicha, korxonalarning investitsiya resurslarini shakllantirish va ularni samarali boshqarish bugungi iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Investitsiya resurslari ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Korxonalar investitsiyalarning asosiy manbai sifatida ichki moliyaviy imkoniyatlarga tayangan holda, tashqi moliyalashtirish imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalana olmayapti. Shu bois, investitsiyaviy qarorlarni qabul qilishda strategik yondashuv yetishmaydi, risklarni boshqarish tizimi esa hozircha zaif shakllangan.

Shu bilan birga, O'zbekistonda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining ortib borayotgani, investitsion muhitning takomillashib borayotganidan darak beradi.

Bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish esa korxonalarining ichki boshqaruv salohiyatiga, investitsiya resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanishiga bevosita bog‘liq.

Umuman olganda, investitsiya resurslarini shakllantirish va ularni samarali boshqarish bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Korxonalarda investitsiya strategiyasini ishlab chiqish va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur.
- Ichki va tashqi moliyalashtirish manbalarining muvozanatini topish, diversifikatsiya tamoyilini qo‘llash lozim.
- Investitsiya loyihalarini baholashda zamonaviy tahlil vositalarini (NPV, IRR va b.) keng qo‘llash kerak.
- Risklarni boshqarish, monitoring qilish va investitsiya faoliyatini tahlil qilish tizimlarini kuchaytirish muhim.
- Davlat tomonidan kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun moliyaviy va institutsional ko‘makni kuchaytirish lozim.

Ushbu xulosalar asosida korxonalar o‘z investitsiyaviy salohiyatini oshirish, raqobatbardoshligini mustahkamlash va barqaror rivojlanishga erishish yo‘lida muhim qadamlarga ega bo‘lishi mumkin.

## REFERENCES

1. Brigham, E.F. and Ehrhardt, M.C., 2017. *Financial Management: Theory & Practice*. 15th ed. Boston: Cengage Learning.
2. Helfert, E.A., 2001. *Techniques of Financial Analysis*. 10th ed. New York: McGraw-Hill.
3. Modigliani, F. and Miller, M.H., 1958. The cost of capital, corporation finance and the theory of investment. *American Economic Review*, 48(3), pp.261–297.
4. Keynes, J.M., 1936. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. London: Macmillan.
5. Ross, S.A., Westerfield, R.W. and Jordan, B.D., 2019. *Fundamentals of Corporate Finance*. 12th ed. New York: McGraw-Hill Education.
6. Drucker, P.F., 2006. *The Effective Executive*. New York: Harper Business.
7. Xolbo‘tayev, H., 2020. Korxonalar faoliyatida investitsiya siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (3), pp.112–118.

8. Khodiev, B., 2019. Korxonalarda investitsiyaviy boshqaruvni takomillashtirishning dolzARB yo‘nalishlari. *TDIU Ilmiy axborotnomasi*, (4), pp.45–50.
9. Ortiqov, Sh., 2021. Investitsiya loyiHalarini baholashda risklarni tahlil qilish. *Moliyaviy menejment*, (2), pp.67–73.
10. Ergashev, I., 2022. Investitsiyaviy faoliyatni rag‘batlantirishda davlat siyosatining o‘rni. *Iqtisodiy islohotlar*, (1), pp.89–94.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022. “2022–2026 yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” PF–60-sonli Farmoni. [onlayn] <https://lex.uz> (23.03.2025 yilda murojaat qilingan).
12. Davlat statistika qo‘mitasi, 2025. *O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xorijiy korxonalar statistikasi*. [onlayn] <https://stat.uz> (25.03.2025 yilda murojaat qilingan).
13. World Bank, 2023. *Doing Business 2023: Comparing Business Regulation in 190 Economies*. [onlayn] <https://www.worldbank.org> (23.03.2025 yilda murojaat qilingan).
14. OECD, 2022. *Foreign Direct Investment Statistics*. [onlayn] <https://www.oecd.org> (26.03.2025 yilda murojaat qilingan).
15. Uzdaily.uz, 2025.